

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITET

REFERAT

Mavzu: Agrokimyo fanining maqsadi va vazifalari
va boshqa fanlari bilan bog'liqligi. Agrokimyo
fanining rivojlanish tarixi

Tekshirdi: _____

Bajardi: _____

TOSHKENT-2013

Agrokimyo fanining maqsadi va vazifalari va boshqa fanlari bilan bog'liqligi. Agrokimyo fanining rivojlanish tarixi

Reja:

- 1. Kirish.***
- 2. Agrokimyo fanining maqsadi vazifalari va usullari.***
- 3. Agrokimyo fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.***

Tuproq unumdorligini va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirishda o'g'itlarning katta ahamiyatga ega ekanligi ilmiy tashkilotlarning juda ko'p tajribalarida isbotlangan va jahon dehqonchiligi tajribasida tasdiqlangan. Mineral o'g'itlardan foydalanish faqat XIX asrning ikkinchi yarmidagina boshlandi. Keyinchalik ulardan foydalanish yildan-yilga ortib bordi. Shunga ko'ra ularni ishlab chiqarish ham ancha ko'paydi: 2000 yilga kelib dunyo bo'yicha 307,2 mln. tonna mineral o'g'it jumladan 170 mln. tonna kaliyli o'g'it ishlab chiqarilishi kerak. Lekin shunga qaramay go'ng qishloq xo'jaligida muhim o'g'itlardan biri bo'lib qolmoqda, chunki uning tarkibida o'simliklar uchun zarur barcha oziq elementlari bor, demak u qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini ortishiga kuchli ta'sir etadi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, hosildorlikning 50 foizi o'g'itga va 50 foizi boshqa omillar (agrotexnika, sort, meliorasiya va xokazo)ga bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik ekinlariga ishlatish shu bilan birga atrof-muhitni ifloslanishining oldini olishga juda katta ahamiyat berilayapti

Jeroy-Sardara fosforitlar konidagi Marokash turiga mansub donador Fosforitlarning aniqlangan zahirasi taxminan 100 mln. tonnani tashkil etadi. Uning negizida Qizilqum fosforit kombinati ishga tushdi. Unda 2,7 mln tonna fosforit konsentrati olinadi.

O'zbekistonda fosforit o'g'itlar-ammofos va ammoniylashtirilgan superfosfat ishlab chiqaradigan juda katta korxonalar barpo etilgan.

O'zbekistonda juda katta kaliy tuz mavjud, bular Qashqadaryo viloyatidagi Tubakat va Surxondaryo viloyatidagi Xujaykon konlaridir. Taxminiy hisoblarga qaraganda kaliy tuzlari 100 yildan ko'proqqa etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 7 ta o'g'it ishlab chiqarish ximiya zavodi ishlab turibdi va quyidagi o'g'itlar ishlab chiqarilmoqda: mochevina, ammofos, ammiakli selitra, ammoniylashtirilgan superfosfat, ammoniy sulfat.

Agromkimyo - tuproq, o'simlik va oziq moddalarning o'zaro aloqasini tekshirib turli o'g'itlarni ishlatish yo'li bilan ekinlardan tobora yuqori va sifatli

hosil olish haqidagi fan.

Agrokimyoda o'rganiladigan uchta asosiy ob'ekt – o'simlik, tuproq va o'g'itlar bir biriga ta'sir etib turadi. Bu bog'lanishlar sistemasini D.N.Priyanishnikov uchburchaklik ko'rinishda tasvirlaydi, uning uchta uchi o'simlik, tuproq va o'g'itni ifodalaydi.

«O'simlik, tuproq va o'g'it orasidagi munosabatlarni o'rganish deb yozgan edi: D.N.Priyanishnikov – hamma vaqt agrokimyogarlarning asosiy bo'lib kelgan».

U faqat agrokimyogina tuproq unumdorligi va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirish uchun tegishli o'g'itlarni yuqorida aytilgan o'zaro ta'sir etadi deb uchta omilni nazarda tutib ishlatishga doir bilimlarni tarkib toptirish bilan shug'ullanadi deb ta'kidlangan edi. Agrokimyoning unga yaqin fanlaridan (o'simliklar fiziologiyasi, dehqonchilik, tuproqshunoslik va boshqalardan) farqi ham ana shunda.

Agrokimyoda nazariy va amaliy masalalarni o'rganishda tekshirishning turli xil usullari qo'llaniladi, chunonchi:

- 1) *O'simlik, tuproq va o'g'itlarning laboratoriya analizlari (kimyoviy va fizik kimyoviy analizlar) o'tkaziladi;*
- 2) *Sun'iy sharoitda (vegetasion uychalari, issiq xonalar, lizimetrlar) o'simliklar bilan vegetasion va lizimetrik tajribalar olib boriladi;*
- 3) *Har xil tuproq iqlim sharoitida o'g'itlar bilan tajribalar o'tkaziladi;*
- 4) *Katta maydonlarda ishlab chiqarish tajribalari o'tkaziladi.*

Dala tajribalari va ishlab chiqarish tajribalarining natijalari asosida o'rganilayotgan o'g'itlar hamda ularni ishlatish usullarini iqtisodiy samaradorligi baholanadi va shunga qarab ishlab chiqarishga amaliy tavsiyanomalar beriladi.

Agrokimyoning qishloq xo'jaligi amaliyotiga tadbiqu, asosan sanoatda ishlab chiqariladigan va mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish xususida amalga oshiriladi. Agrokimyo dehqonchilikni kimyolashtirishning asosiy nazariy asosi hisoblanadi.

Agrokimyo fanining asoschisi, rus olimi akademik D.N.Priyanishnikov 1906 yildayoq mustaqil agrokimyo fani bilan yaqin aloqada bo'lgan fanlarni sanab

o'tgan edi. O'simlikshunoslik tabiatni muxofaza qilish, dehqonchilik, tuproqshunoslik, meteorologiya, o'simliklar kimyosi, agrofizika va boshqa bir qator fanlar shular jumlasidandir.

Agrokimyo fani barcha o'simliklarning o'g'itlarga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi fan bo'lib, uning vazifasi o'simliklarning o'g'itga bo'lgan talabi, o'g'itlar etishmagan yoki ortiqcha bo'lgan hollarda ro'y bergan kasalliklar belgilarini, hosildorlikni oshirish yo'llarini, shuningdek tuproq tarkibidagi o'simliklar uchun muhim bo'lgan azot, fosfor, kaliy va bir qator mikroelementlarning miqdorini aniqlashdan iborat.

Ko'pchilikka ma'lumki qadimgi Turkistonda ham dehqonchilik rivojlangan va o'simliklarning oziqlanishiga oid fikrlar bo'lgan.

Markaziy Osiyo qadimiy dehqonchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Meloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda avvaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan qabilalar hozirgi Eron hududidan janubiy Turkistonga ko'chib o'tadilar va bu erda «Jaytun» deb nomlangan dehqonchilik erlarni bostirib sug'orish asosida, to'g'rirog'i, bahorda daryolar toshgan paytda suv bosgan joylarga ekin ekish asosida amalga oshirilar edi.

Bronza (ml.avv.VI-III ming yillar) davriga kelib Zarafshon vodiysida ham dehqonchilik bilan shug'ullana boshladilar. Uzunligi uch kilometrga etadigan kichik shox ariqlar qazilib, unumdor erlarga suv chiqarilishi dehqonchilik tarixidagi muhim qadamdir.

Buyuk ensklopedist olim Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ning mashxur asari «Kitob-ul jamoxir-fi ma'rifatil javoxir» tuproq mineral qismining xossalarini o'rganish bo'yicha saqlanib qogan dastlabki muhim qo'llanma hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Abdullayev X.A. O'zbekiston tuproqlari. T:,1977*
2. *Boboxo'jayev.I. Uzoqov P. Tuproqning tarkibi, xossalari va analizi.*
3. *Boboxo'jayev I. Uzoqov P. «Tuproqshunoslik» T: Mehnat 1995.*
4. *Bohodirov M. Rasulov A. «Tuproqshunoslik» T: O'qituvchi 1975.*
5. *Kaurichev I.S. Pochvovedenie M. Kolos 1989.*
6. *Peyve Ya.V Bioximiya pochv M.Selxozgiz 1949.*
7. *Rasulov .M. Irmatov I. Tuproqshunoslik, dehqonchilik asoslari bilan T. O'qituvchi 1980*
8. *Tursunov L. Tuproq fizikasi T.Mehnat 1988.*